

**TOJIKLARNING HUDUDIY JOYLASHUVI HAQIDA BA'ZI
MULOHAZALAR (JIZZAX VOHASI MISOLIDA)**

Babayev Shoxrux Esanbayevich

Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani

Barkamol avlod bolalar maktabi

tarix fani to'garak rahbari

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada Jizzax vohasining etnik qatlami, xususan, vohadagi tojiklarning hududiy joylashuvi haqida ba'zi ilmiy mulohazalar yoritilgan.*

KALIT SO'ZLAR. *Jizzax, tojik, qirg'iz, Paxtakor, Do'stlik va Zafarobod, Forish, Mojurum, Uxum, Sentob*

АННОТАЦИЯ. *В данной статье освещены некоторые научные соображения об этническом слое Джизакского оазиса, в частности, о территориальном расположении таджиков в оазисе.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. *Джизак, Таджики, Киргизы, Пахтакор, Достлик и Зафарабад, Фарииш, Мажурум, Ухум, Сентоб*

ANNOTATION. *This article covers some scientific considerations about the ethnic layer of the Jizzakh oasis, in particular, the territorial location of the Tajiks in the oasis.*

KEY WORDS. *Jizzakh, Tajik, Kyrgyz, Pakhtakor, Dostlik and Zafarabad, Farish, Mojrum, Ukhum, Sentob*

Jizzax vohasi tabiiy geografik joylashuviga ko'ra, Turkiston tizmasi va uning tarmoqlari bo'lgan Morguzar va Nurota tog' tizmalarining shimoliy yonbag'irlari, Mirzacho'lining markaziy va janubiy hududlarini o'z ichiga oladi¹. Voha shimoli sharq tarafdin Paxtakor, Do'stlik va Zafarobod tumanlari orqali Aydarko'lga, sharqdan Mirzacho'lga va shimoliy-g'arbdan Qizilqum cho'llariga, janubiy g'arbiy qismidagi tekisliklar Zomin va Oyqor tizmalariga tutashib ketgan².

¹Ўзбекистон Республикаси. (Жиззах вилояти ва Сирдарё вилоятлари. Маъмурий бўлиниши). Т., 2002.95-б.

²Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. (Жиззах вилояти). Т., 2004. 593 б.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Voha shimolda va shimoliy-sharqda Qozog‘iston bilan (216,9 km), sharqda va janubiy-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan (326,7 km), g‘arbda Navoiy (83,7 km) va Samarqand (199,8 km) viloyatlari bilan chegaradosh. Janubi-sharqda Sangzor daryosidagi Ilono‘tti tog‘ yo‘lagi Nurota tizmasini Molguzar tizmasidan ajratib turadi³. Har ikki tog‘ tizmasining g‘arbiy qismi tekislik, sharqiy qismi esa Nurota vohasi orqali Oqtog‘, Qoratog‘ va shu orqali Qo‘ytosh tog‘lariga tutashib ketadi.

O‘zbekistonning deyarli markaziy qismida joylashgan vohaning bir qismi cho‘l, chalacho‘l va dashtliklarga tutashib ketadi. Mintaqada tog‘, tog‘oldi, pasttekisliklar bilan cho‘l zonalarining tutashib ketishi uning o‘ziga xosligidir. SHimol va shimoliy-sharqdan zinapoyasimon shakldagi tekisliklar tog‘liklar tomon ko‘tarilib boradi. Hududning katta qismini er tuzilishi tekisliklardan iborat Mirzacho‘l egallagan⁴. Vohaning er yuzasi bir xil emas. U janubiy sharqdan shimoliy-g‘arbga tomon pasayib boradi. Tekislik qismi shimoliy-g‘arbga tomon nishab bo‘lib, o‘rtacha balandligi 250-300 m ga teng. Janubdagi tog‘ etaklarida balandlik 450-530 m gacha etadi⁵.

Turkiston tizmasining shimoliy tarmog‘i hisoblangan Molguzar tog‘ining o‘rtacha balandligi 1500-2000 m, ayrim cho‘qqilari 2621 m gacha etadi. U shimol tomonda Sangzor daryosining vodiysi orqali Nurota tog‘idan ajralib turadi. Vohaning yirik daryosi Sangzor daryosi (uzunligi 123 km) Turkiston, Qo‘ytosh va Molguzar tizmasidagi qor-muz suvlaridan to‘yinadi, yozda suvi ko‘payib, qishda kamayadi. O‘rtacha bir oydagi suv sarfi 6,1 m kub sekundni tashkil etadi⁶.

Jizzax vohasining joylashgan o‘rni, qulay geografik xususiyatlari qadimdan o‘troq va yarim o‘troq aholining muqim yashab qolishi, xo‘jalik yuritishi uchun barcha tabiiy sharoitlarni yaratgan. Shundan kelib chiqqani holda hududda qishloq xo‘jaligi va chorvachilik doimiy va mavsumiy tarzda rivojlanib borgan va ko‘chmanchi chorvachilikning o‘troq dehqonchilik xo‘jaligi bilan mushtarak rivojlantirish imkoniyati ko‘plab etnik guruhlarni bu joyga ko‘chib kelib

³ Ўша жойда.

⁴Алибеков Л.А., Нишанов С.А. Природные условия и ресурсы Джизакской области. –Ташкент: Узбекистан, 1978. – С. 24-25.

⁵Тошбоев Ф. Уструшона чорвадорларининг антик даврдаги маданияти. Тарих фан. бўй. фал. док. (PhD). дисс. автореферати. Сам., 2017. 14 б.

⁶Алибеков Л.А., Нишанов С.А. Природные условия и ресурсы Джизакской области. – С. 27.

o'rnashishlariga sabab bo'lgan.

Voha aholisi bugungi kunda etnik jihatdan murakkab tarkibga ega bo'lib, o'zbeklar - 89,0%, qirg'izlar - 3,1%, tojiklar - 3,0%, qozoqlar - 2,1%, ruslar - 0,7%, boshqa millatlar - 2,1% tashkil qilib, Jizzax viloyatida O'zbekiston Respublikasi aholisining 4,1% iistiqomat qiladi. Jumladan, o'zbeklar - 1208,7 ming nafar, qirg'izlar - 41,6 ming nafar, qozoqlar-28,4 ming nafar, tojiklar-31,6 ming nafar, ruslar-14,9 ming nafar, tatarlar-6,4 ming nafar koreyslar-2,7 ming nafar, turkmanlar-0,4 ming nafar, qoraqalpoqlar-0,2 ming nafar boshqa millat va elatlar vakillari-17,3 ming nafarni tashkil etadi⁷.

O'zbekistonning tarixiy-madaniy mintaqalaridan biri bo'lgan Jizzax viloyati o'ziga xos tarixga ega bo'lib, hududda turli millat va elat vakillari qadimdan yonmayon istiqomat qilib kelishadi. Ammo shuni alohida qayd etish zarurki, shu paytgacha Jizzax vohasi aholisining etnik tarkibiga oid ma'lumotlar anchagina uzuq-yuluq xarakterga ega bo'lgan.

Jizzax vohasida yuqorida qayd etganimizdek, o'zbeklardan tashqari tojiklar ham istiqomat qilishadi. Tojiklar asosan vohaning cho'l mintaqalarida (sovetlar davridagi aholining ko'chirish siyosati natijasida) uyushmagan holatda shuningdek, asosiy qismi esa Nurota tizma tog'ining o'rta va eng baland qismida (66°, 33' va 66°, 55' sharqiy kenglik orasida) joylashgan Forish, Mojurum, Uxum, Sentob, Katta va Kichik Ej va Keskan kabi yirik qishloqlarda yashaydi. Nurota tojiklari o'zlarining hayot tarzi va qisman tashqi tuzilishi bilan Zarafshonning Yuqori qismi tojiklariga o'xshab ketishadi.

Hozirgi kunda Nurota tojiklari garchi o'zlarini tojik millatiga kiritsa-da, ba'zi bir tojik qishloqlari aholisi o'zlarini etnik tarixini ma'lum bir o'zbek urug'ilari bilan bog'laydilar. Lekin afsuski xozirgacha fanda tojiklarning kelib chiqishi va nima uchun o'zlarini o'zbek urug'larining nomi bilan atashlari noma'lumligicha qolmoqda.

⁷Жиззах вилоят ҳокимлиги расмий веб сайти. www.jizzax.uz. ташриф 2021 йил 10-октябр.